



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



6. To'ra Mirzayev. "So'zdan so'zning farqi bor". 2018.

7. Раҳмонов Н., Жўраев М., Турдимов Ш., Эшонқулов Ж. ва бошқ. Туркий ёзма ёдгорликлар ва фольклор. – Тошкент: Tafakkur avlodi, 2020. – 296 б.

XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI

Erkinova Madinaxon Umid qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 2-bosqich talabasi

madinaerkinova221@gmail.com

Annotatsiya: Tarixda yashab faoliyat yuritgan shaxslarning badiiy iste'dodi, she'riyati va adabiy merosini o'rganish, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, adabiyotshunoslik sohalarining muhim vazifalaridan biri sanaladi. O'z davrida ilm va san'at, madaniyat va ma'rifat rivojiga hissa qo'shgan Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy siymosining mushtarak jihatlarini o'rganish, xalq og'zaki ijodida bu ikki inson obrazining yaratilishi masalasini kuzatish ehtiyoji mavjud. Navoiy va Husayn Boyqaro obrazi xalq og'zaki ijodi, xususan, rivoyat, afsona, ertak va naqlardagi badiiy talqinini ilmiy aspektda kuzatish adabiyotshunoslikdagi kemptik jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Xalq orasida sevimli qahramonga aylanib ulgurgan Navoiy va Husayniy shaxsiyati, do'stlik rishtalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu ikki shaxs muttasil ravishda el-yurt farovonligini ko'zlab harakat qilgan. Xurosondagi ilm-adab, san'at ahlini bir joyga jamlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib bergan. Natijada ularning bu xislatlari og'izdan og'izga o'tib, qahramonlik eposlariga aylanib ketgan. Maqolada rivoyatlar zaminidagi buyuk do'stlik, sadoqat, vatanga muhabbat masalalari Navoiy va Husayn Boyqaro siymosi orqali kuzatilgan.

Kalit so'zlar: Xuroson, vazir, elchi, bulbul, bosh, qilich, an'ana, do'stlik.

Annotation: The study of the artistic talent, poetry and literary heritage of individuals who lived and worked in history is one of the important tasks of textual studies, literary source studies, literary studies. There is a need to study the common aspects of the figures of Husayn Boykaro and Alisher Navoi, who contributed to the development of science and art, culture and enlightenment in their time, and to observe the issue of the creation of the image of these two people in folk oral literature. Observing the artistic interpretation of the image of Navoi and Husayn Boykaro in folk oral literature, in particular, in legends, myths, fairy tales and proverbs, from a scientific perspective serves to fill the gaps in literary studies. The study of the personalities and friendship of Navoi and Husayn, who became beloved heroes among the people, shows that these two individuals consistently worked for the welfare of the people and the country. The people of Khorasan, who were educated, literate and artistic, gathered together and created all the conditions. As a result, their qualities were passed down from mouth to mouth and turned into heroic epics. The article examines the issues of great friendship, loyalty and love for the homeland in the realm of legends through the figures of Navoi and Husayn Boykara.

Key words: Khorasan, minister, ambassador, nightingale, head, sword, tradition, friendship.

Tarix asrlar davomida ajdodlarimizning bosib o'tgan shonli hayotining guvohidir. O'zbek xalqining zabardast o'g'lonlari yurt va vatan tinchligi yo'lida kechani kecha, kunduzni kunduz demay harakatda bo'lishgan. O'z davrining



mashhur shaxslari Alisher Navoiy va husayn Boyqaro ham ana shunday buyuk shaxslardan sanaladi. Xusnigul Jo'rayeva ta'kidlaganidek, "Sulton Husayn Boyqaro hamda g'azal mulkning sultoni Mir Alisher Navoiy qirq yillik tarixga ega do'stdir. O'tmishda ularning birga o'sganliklari, maktabdosh bo'lganliklari ma'lum. Bilamizki, Alisher Navoiy asarlarida Husayn Boyqaro shaxsiyati, saltanatdorlik faoliyatini o'rgangan. Xususan, ulug' qalam sohibi Alisher Navoiy "Xamsa" sining har bir dostonida Sulton Husayn Boyqaro uchun alohida boblar yozadi. "Majolis un-nafois" tazkirasining sakkizinchi majlisi ham hukmdorga bag'ishlangan. Navoiy deyarli barcha nasriy asarlarini Husayn Boyqaroga atab yozgan. Chunki Husayn Boyqaro Navoiy ijodi va faoliyatiga ham podshoh, ham do'st sifatida ta'siri kata bo'lgan" [2: 23].

Husayn Boyqaro ham yaxshigina turkiygo'y shoir bo'lib Husayniy taxallusi bilan ijod qilgan. Husayniy ham Navoiyni yuksak darajada hurmat qilib, ko'klarga ko'targan hukmdordir. Hattoki, "Husayn Boyqaro ulug' qalam sohibiga bag'ishlab alohida risola ham yozadi. Unda muallif mamlakat rivoji uchun qilingan ezgu ishlar, bunyodkorlik ishlarini sanaydi, bu yo'lda unga aziz avliyolar ruhi hamroh bo'lganligini e'tirof etadi. Eng muhim jihati, zamondoshlari Jomiy va Navoiy unga "jilvai zuhur" bo'lib turganini, ya'ni Haqning nuri ularda aks etib turganini aytadi. Bu aslida ikki avliyo sifat shoirlarga juda yuksak baho edi. Bundan tashqari, Husayn Boyqaro o'zi va shunday ulug'lar yashagan zamonni davrlarning eng zo'ri, deb biladi. Uning yozishicha, Hirotida o'sha davrda mingga yaqin qalam sohibi bo'lgan. Bu esa Navoiy yashagan adabiy muhitning qanchalik boyligini yana bir karra ko'rsatadi.

Husayn Boyqaro Navoiy bilan bolalikdan do'stligi, ko'kaldoshligini aytib, u "turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi", ya'ni turkiy tilning o'lib qolgan jismiga Iso Masih kabi nafas bilan jon kiritdi, deydi. Keyin Alisher Navoiyning aynan turkiy tilda turli janrlardagi ijod qilganini madh etadi".

"Husayniy zamonasida ilm-madaniyat, islom ma'rifati yo'lidagi qonun-qoidalar, farz va sunnat, adl-u insof, mehr-u muruvvat qat'iy mezon :rasida bo'lgan. Husayn Boyqaro saltanatdorlik masnadida davlatpanohlik qilsa-da, tariqat ilmidan xabardor irfoniy tafakkur sohiblariga yon bosib, xayrli ishlarga bel bog'lagan" [2: 28]. Bunday oliyjanob podshoh, o'z davrining yuksak rahnamosi bo'lmish Sulton Husayn Boyqaroning homiyligida Navoiydan tashqari Lutfiy, Binoiy, Vosifiy, Mirxond, Xondamir, Badriddin Hiloliy, Husayn Voiz Koshifiy, Atoulloh Husayniy, Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Kamoliddin Behzod, Shayxim Suhayliy, Mirak Naqqosh, Qosim Ali kabi shoir, olim, naqqosh, rassom, xattotlar ham ijod bilan shug'ullanganlar.

Navoiy va Husayn Boyqaro tarixiy shaxslardir. Bu ikki shaxs Hirot adabiy muhitining sarkori. Bu ikki obrazning qilgan ishlari, yurt tinchligi, ilm-fan, san'at rivojidadagi xizmatlari asrdan asrga, tildan tilga o'tib, Navoiy va Husayn Boyqaro haqidagi ertak, afsona, va rivoyatlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi.. Bunday adabiy hodisalarning yuzaga kelishining bir necha sabablari mavjud. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi o'z qahramonlariga bo'lgan mehr-muhabbatini, numday buyuk fi'y, vatanparvar farzandlariga oldidagi ado etib bo'lmas "qarzi"ni uzishga



intilishadi" [1,65]. Bundan tashqari, "Xalq sevgi-muhabbat haqida nafis g'azallar, ajoyib dostonlar bitgan, xalqning tinchligi, osoyishtaligi uchun xizmat qilgan farzandlari hayotining o'z asarlarida aniq aks etmay qolgan tomonlarini o'zicha to'ldirishga, ularning nurli va ibratomuz shakl-u shamoyilini asrlar va kelgusi avlod ardog'ida qoldirishga jazm etadilar" [1: 65].

"Bu ikki obrazning u yoki bu qirrasini ochishga xizmat qiluvchi, ularning o'z asarlarida qamrab olinmagan, aks etmagan xususiyatlarini yorituvchi ko'plab hikoyat va rivoyatlarning yaratilishi faqat o'zbek folkloridagina emas, balki boshqa turkiy xalqlar, qolaversa, butun Sharq og'zaki ijodiyotida ham yetakchi yo'nalishga aylandi" [1: 64].

Xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining samarali hissasini qo'shgan folklorshunos olimlardan biri bu Mamatqul Jo'rayevdir.

Mamatqul Jo'rayev "Sehrli raqamlar siri", "O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar", "O'zbek xalq taqviimi va mifologik afsonalar" singari 30dan ortiq monografiya va kitoblar muallifi. U o'zbek filologiyasining atoqli namoyandalaridan biri, xalq og'zaki badiiy ijodiyotini keng ko'lamda tadqiq etishdan iborat fundamental ilmiy maktabga asos solgan fan tashkilotchisi, eposshunoslikning ko'plab nazariy masalalarni jahonshumul darajada hal qilgan yirik olimlardan biri hisoblanadi.

Mamatqul Jo'rayevning navoiyshunoslikka oid olib borgan ilmiy izlanishlari, tadqiqot ishlari Navoiy siymosini chuqurroq o'rganishdagi ulkan bir adabiy manbalardan biri sanaladi. Olim 1991-yil Hazrat Alisher Navoiyning 557 yillik yubileyi munosabati bilan "El desa Navoiyni" nomli kitob nashr ettirdi. Uning bu majmuasida jahon she'riyati Sultoni, turkiy tilimizda o'nlab ulug' va umri boqiy asarlar yozgan bobomiz Mir Alisher Navoiy haqida xalq yaratgan rivoyatlar jamlangan.

"El desa Navoiyni" kitobida "Adolat", "Tulpor nasli", "G'azal to'qish ham ish ekanmi?", "Gap navosida", "Qizlar hazili", "Ona suti", "Yurt qorovuli", "Ko'rpangizga qarab oyoq uzating-da, shohim", "Saltanatli Amirning sifatleri", "erksiz shohdan erkin gado afzal", "To'rt donishmand", "Shoir jilovdori", "G'azal tili bilan", "Qaysi pichoq podshoniki?", "Kiyikning tuyog'i qayda-yu, qulog'i qayda?", "Mirali bilan savdogar" kabi o'nlab rivoyatlar berilgan.

"El desa Navoiyni" kitobining "Qizlar hazili" nomli hazil-u mutoyibaga boy rivoyatida Alisher Navoiy va qizlarning suhbatlari har bir o'quvchini o'ziga jalb qiladi. Shu o'rinda rivoyatning boshlanish qismiga e'tibor qaratsak: "Alisher Navoiy o'z shiypnida g'azal bitishni yaxshi ko'rar edi. Bog'i ham bog'misan bog' edi-da. To'ti-yu qumrilar sayrab, bulbullar navo qilib turar edi. Bir kun shoir shiypniga joy qildirib, allamahalgacha g'azal bitibdi. Vaqt qoq tushga kelganda havo isib uyqu bosib, shundoqqina o'tirgan joyida uxlab qolibdi. Bu payt bog' sayliga chiqqan qizlar uni ko'rib qolib, Alisherbekni so'zlatish uchun uning dovotini yashirib qo'yishibdi" [3: 59]. Rivoyat shunday tasvir bilan boshlanadi va sho'x-shodon qizlar Alisherbekning dovotini ular uchun atab aytgan ushbu g'azal evaziga qaytarib berishadi:

Oling qizlar, bering qizlar,



Xoma sozin ko'proq chalsin,
 So'z injusin tezroq teray,
 Gulsanamlar o'qib qolsin.
 Oling qizlar, bering qizlar,
 Shoiringiz she'rlar bitsin,
 Dovotimga qilmang hazil,
 Xoma inju izin tizsin.
 Dovotimni bering qizlar,
 Mahtal bo'lmay she'rim bitay,
 Ozor bermang shirin so'zlar,
 Sizga borim hadya etay.

Shundan so'ng, Alisher Navoiy dovotini qaytarib oladi va qizlarning hazilidan ilhomlanib, ko'plab g'azallar bitadi va bu g'azali ham boshqa g'azallari singari xalq orasida tez mashhur bo'lib ketadi.

Yana shunday diqqatni tortuvchi "Erksiz shohdan erkin gado afzal" rivoyatiga to'xtalsak. Biz bu rivoyatda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning sayohatga chiqqani va yo'lda bir ayolni uchratgani va shu orada Navoiy bilan ayolning suhbatiga e'tibor beramiz. Ushbu suhbatning ma'nosi shuki: "Agar biror inson to'kin-sochinlikda yashasa-yu, lekin erkidan mahrum bo'lsa, u holatdan ko'ra gado bo'lsa ham, erkin yashagan afzaldir". Ya'ni erkinlik– inson uchun boylik, mansabdan ham muhimroqdir.

Qissadan hissa shuki, erkinlik – inson uchun har qanday narsadan afzaldir va bu rivoyat orqali kitobxon erkinlikning ulug'ligini, erk yo'q joyda hatto eng baland mavqe ham arzimastligini tushunib yetadi.

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi– bu xalqning ruhiy dunyosi, urf-odatlar, tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va madaniyatining muhim ifodasidir. Xalq og'zaki ijodi og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib keladi va unda xalqning orzu-umidlari, ezgu ishlari, tarixiy voqealar va qahramonliklari tasvirlanadi. Mana shunday xalq orasida o'z o'rniga ega bo'lgan qahramonlardan Navoiy va Husayn Boyqaro obrazi xalq og'zaki ijodi, xususan, rivoyat, afsona, ertak va naqlardagi badiiy talqinini ilmiy aspektda kuzatish adabiyotshunoslikdagi kemptik jihatlarini to'ldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov N. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy siymosini talqin etish muammolari. – Toshkent: 1994. – 343 b.
2. Jo'rayeva X. Husayniy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. –Toshkent: NIF MSh, 2021. –116 b.
3. Jo'rayev M. El desa Navoiyni. – Toshkent: Cho'lpon, 1991. –160 b.
4. Yusupova M. Tarixiy shaxslar obrazining lirik va epik talqini. – Farg'ona: 2023. –138 b.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнура Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

